

NEFT-GAZ LOYIHALARIDA XARAJATLARNI QOPLASH VA FISKAL MANFAATLAR MUVOZANATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

MECHANISMS FOR COST RECOVERY AND ENSURING A BALANCE OF FISCAL INTERESTS IN OIL AND GAS PROJECTS

¹Mansurov Obid
Zaynidinovich

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada O'zbekistonda mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) asosida amalga oshiriladigan neft-gaz loyihalarida xarajatlarni qoplash hamda davlat va investorning fiskal manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash mexanizmlari tadqiq etilgan. MTB sharoitida investorning geologiya-qidiruv va qazib olish xarajatlarini o'z mablag'lari va tavakkali hisobidan moliyalashtirishi, keyinchalik esa yo'l qo'yiladigan xarajatlarni kompensatsiya mahsuloti hisobidan qoplashi mazkur tizimning asosiy xususiyati sifatida baholangan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining tegishli qonunchilik hujjatlari asosida MTBlarning fiskal va institutsional mexanizmlari tahlil qilingan. Xarajatlarni nazorat qilishni loyihaoldi hujjatlari, texnik yechimlar, moliyaviy model va xaridlar strategiyasi shakllanish bosqichidan boshlash zarurligi asoslangan. Tadqiqot natijasida xarajatlarni texnik zarurlik, bozorga moslik va shartnomaviy ruxsat etilganlik mezonlari asosida baholash modeli, "gold plating" xavfini aniqlash algoritmi, bog'liq tomonlar operatsiyalarini nazorat qilish mexanizmi hamda raqamli, riskka asoslangan monitoring tizimi taklif etilgan.

Eng. - This article examines mechanisms for cost recovery and for balancing the fiscal interests of the state and investors in oil and gas projects implemented in Uzbekistan under Production Sharing Agreements (PSAs). A key feature of the PSA framework is that investors finance geological exploration and production activities with their own funds and at their own risk, while eligible expenditures may subsequently be recovered through cost-recovery production. The study analyzes the fiscal and institutional mechanisms of PSAs on the basis of the relevant legislation of the Republic of Uzbekistan. It substantiates the need to initiate expenditure control at the stage of preparing pre-project documentation, selecting technical solutions, developing the financial model, and formulating the procurement strategy. Based on the findings, the article proposes a model for assessing expenditures according to technical necessity, market consistency, and contractual eligibility; an algorithm for identifying "gold plating" risks; a mechanism for controlling related-party transactions; and a digital, risk-based monitoring system.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ mahsulot taqsimotiga oid bitim (MTB), neft-gaz loyihalari, xarajatlarni qoplash, fiskal mexanizm, kompensatsiya mahsuloti, gold plating, loyihaoldi ekspertizasi, raqamli monitoring.

❖ production sharing agreement (PSA), oil and gas projects, cost-recovery production, state and investor interests, gold plating, pre-project appraisal, digital monitoring.

Kirish.

Neft-gaz tarmog'i O'zbekiston iqtisodiyotining strategik ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi yuqori kapital sig'imi, uzoq muddatli investitsiya sikli, geologik noaniqlik, texnologik tavakkalchilik hamda uglevodorodlar narxining o'zgaruvchanligi bilan chambarchas bog'liq. Mazkur xususiyatlar neft-gaz loyihalarini moliyalashtirish va amalga oshirish jarayonida davlat hamda investor manfaatlarini o'zaro muvofiqlashtirish masalasini alohida iqtisodiy va institutsional ahamiyatga ega bo'lgan yo'nalishga aylantiradi.

Davlat nuqtayi nazaridan neft-gaz loyihalarining iqtisodiy samaradorligi tabiiy resurslardan foydalanish natijasida shakllanadigan resurs rentasining maqbul qismini olish, budjet daromadlarini ta'minlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish bilan belgilanadi. Investor uchun esa katta hajmdagi kapital qo'yilmalar va geologik risk sharoitida sarflangan investitsiyalarni qaytarish hamda iqtisodiy jihatdan maqbul daromadlilik darajasiga erishish muhim hisoblanadi. Shu sababli mazkur ikki tomon manfaatlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlovchi samarali fiskal va shartnomaviy mexanizmlarni shakllantirish neft-gaz loyihalarini barqaror amalga oshirishning muhim shartlaridan biridir.

Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar (MTB) davlat va investor manfaatlarini shartnomaviy asosda muvofiqlashtirish imkonini beruvchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. Bunday bitimlar doirasida investor geologiya-qidiruv va qazib olish ishlarini o'z mablag'lari hisobidan hamda investitsiyaviy riskni o'z zimmasiga olgan holda amalga oshiradi. Shu bilan birga, bitim shartlarida belgilangan va tegishli mezonlarga javob beruvchi xarajatlarni keyinchalik mahsulotning kompensatsiya qismi hisobidan qoplash imkoniyati mavjud.

Mazkur jihatdan xarajatlarni qoplash mexanizmi MTBning faqat texnik yoki hisob-kitob elementi sifatida emas, balki davlat va

investor o'rtasida iqtisodiy natijalarni taqsimlashga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy fiskal vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Kompensatsiya qilinadigan xarajatlar hajmining ortishi, boshqa shartlar o'zgarmagan taqdirda, foyda sifatida taqsimlanadigan mahsulot hajmining kamayishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, xarajatlarning asossiz ravishda cheklanishi investorning investitsiyaviy rag'batlari va loyiha samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini yuzaga keltiradi. Shu bois xarajatlarni boshqarishda ularni mexanik ravishda qisqartirish emas, balki texnik zarurligi, bozor sharoitlariga muvofiqligi va shartnomaviy jihatdan ruxsat etilganligini kompleks baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Neft-gaz loyihalarida xarajatlarning shakllanishi faqat ularning amalga oshirilish bosqichida emas, balki loyihaoldi hujjatlarini tayyorlash, texnik yechimlarni tanlash, moliyaviy modelni ishlab chiqish va xaridlar strategiyasini shakllantirish jarayonidayoq boshlanadi. Shu sababli xarajatlarni nazorat qilish mexanizmlarini post-audit bilan cheklamasdan, ularni loyihaoldi bosqichidan boshlab qo'llash xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligini oshirish hamda keyingi fiskal tavakkalchiliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Bu borada 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmonda davlat xaridlarida raqobat va shaffoflikni kuchaytirish, raqamli texnologiyalar hamda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan yondashuvlarning belgilanishi alohida ahamiyatga ega [1]. Mazkur yondashuvlarni MTB asosidagi neft-gaz loyihalariga moslashtirish xarajatlarni oldindan baholash, yuqori riskli operatsiyalarni aniqlash, bog'liq tomonlar bilan amalga oshiriladigan bitimlarni nazorat qilish va xarajatlar monitoringini raqamlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, MTB asosidagi neft-gaz loyihalarida xarajatlarni qoplash mexanizmlarini takomillashtirish, yo'l qo'yiladigan xarajatlarning iqtisodiy asoslanganligini baholash, loyihaoldi ekspertizasi bilan keyingi xarajatlar nazoratini o'zaro bog'lash, "gold plating" va bog'liq tomonlar operatsiyalari bilan bog'liq risklarni kamaytirish hamda raqamli, riskka asoslangan monitoring mexanizmlarini rivojlantirish davlat va investor fiskal manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashning dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Neft fiskal tizimlari bo'yicha adabiyotlarda davlat va investor o'rtasida risk hamda daromadlarni taqsimlash masalasi muhim o'rin tutadi. D. Johnston neft fiskal tizimlarida royalti, soliqlar, xarajatlarni qoplash va mahsulot taqsimoti elementlarining o'zaro bog'liqligini tadqiq qilgan [2].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining qazib oluvchi tarmoqlarni soliqqa tortish bo'yicha qo'llanmalarida ham tabiiy resurslardan foydalanishdan olinadigan daromadlar va investitsiyaviy jozibadorlik o'rtasidagi muvozanat zarurligi ta'kidlanadi [3].

Bog'liq tomonlar bilan operatsiyalarni baholashda OECD tomonidan ilgari surilgan arm's length principle – "mustaqil tomonlar tamoyili" muhim metodologik asos hisoblanadi [4]. Mazkur tamoyil operatsiyalarni mustaqil tomonlar o'rtasidagi iqtisodiy shartlar bilan taqqoslashni nazarda tutadi.

Carole Nakhle neft-gaz sohasidagi fiskal rejimlarning asosiy vazifasi davlatga uglevodorod resurslarini qazib olishdan shakllanadigan iqtisodiy boylikning adolatli ulushini ta'minlash bilan bir vaqtda investorlarning resurslarni iqtisodiy jihatdan samarali o'zlashtirishga bo'lgan manfaatdorligini saqlab qolishdan iboratligini ta'kidlaydi [5]. MTB doirasida xarajatlarni qoplash limitining haddan tashqari yuqori belgilanishi davlatning daromad olish

muddatini kechiktirishi mumkin. Shu sababli cost recovery chegarasi investorning xarajatlarini qoplash imkoniyati va davlatning foyda mahsulotidan yetarli daromad olishi o'rtasidagi fiskal muvozanatni ta'minlovchi vosita sifatida qaraladi.

Charles J. Johnson neft resurslarini o'zlashtirishda fiskal mexanizmning asosiy vazifalaridan biri davlatning neft-gaz loyihalaridan oladigan daromadlarini maksimal darajada ta'minlash bilan birga, geologiya-qidiruv va qazib olish jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini saqlab qolish ekanligini ta'kidlaydi. Muallif mahsulot taqsimoti bitimlari asosidagi samarali fiskal rejimni shakllantirishda loyihaning rentabelligi, investorlarning iqtisodiy xatti-harakati hamda geologik sharoitlarni birgalikda hisobga olish zarurligini asoslaydi [6]. Bu yondashuv davlat fiskal manfaatlarini ta'minlash va investor uchun maqbul investitsiya sharoitlarini saqlash o'rtasidagi muvozanatni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda MTBning huquqiy asosini 2001-yil 7-dekabrda 312-II-son "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonun tashkil etadi [7]. Unda bitimni tuzish, ish dasturlari va budjetlar, xarajatlar, mahsulot taqsimoti, soliqlar, hisob yuritish hamda davlat nazoratiga oid asosiy qoidalar belgilangan.

Maqolada normativ-huquqiy tahlil, tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, iqtisodiy modellashtirish va ssenariy usullaridan foydalanildi. Shuningdek, muallif tomonidan MTB xarajatlarini texnik, bozor va shartnomaviy mezonlar asosida baholash modeli ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

MTBning iqtisodiy tabiati davlat va investor o'rtasida risk hamda daromadlarni taqsimlashga asoslanadi. Investor geologiya-qidiruv va qazib olish ishlarini o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirgani sababli geologik

riskning katta qismi investor zimmasiga tushadi.

Mazkur xavf investorga investitsiya xarajatlarini belgilangan shartlar asosida qoplash imkoniyatini berishni iqtisodiy jihatdan asoslaydi.

Qonunchilikda investorning yo'l qo'yiladigan xarajatlarini kompensatsiya qilish nazarda tutilgan. Yo'l qo'yiladigan xarajatlar navbatdagi kalendar yil uchun budjetda nazarda tutilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar bilan bog'liq bo'lib, ularning eng yuqori miqdori bitimda belgilanadi [7].

Shu bilan birga, xarajatlarning kompensatsiya qilinishi davlat uchun fiskal riskni ham yuzaga keltiradi. Chunki kompensatsiya mahsuloti ortishi natijasida foydaga qolgan mahsulot kamayishi mumkin.

Shuning uchun davlat manfaatlarini himoya qilishning maqbul usuli xarajatlarni mutlaq cheklash emas, balki iqtisodiy jihatdan asoslangan va bitim shartlariga muvofiq xarajatlarni qoplash hisoblanadi.

MTBning soddalashtirilgan iqtisodiy zanjiri quyidagicha ifodalanadi (1-rasm).



1-rasm. MTBning soddalashtirilgan iqtisodiy zanjiri

Ushbu zanjirda kompensatsiya mahsuloti qancha ko'p bo'lsa, boshqa shartlar o'zgarmagan taqdirda foyda mahsuloti shuncha kamayadi.

Birinchisi – xarajatlarni asossiz ravishda cheklash natijasida investorning investitsiyaviy rag'batlari pasayishi.

Ikkinchisi – kompensatsiya qilinadigan xarajatlar bazasining asossiz kengayishi

natijasida davlatning foyda mahsulotidagi ulushi qisqarishi.

Mazkur ikki xavf o'rtasidagi muvozanat xarajatning mutlaq miqdori bilan emas, balki uning iqtisodiy asoslanganligi orqali ta'minlanishi lozim.

MTBda xarajatlarning asoslanganligini baholash uchun uch mezonli yondashuv taklif etiladi (1-jadval).

1-jadval

MTB xarajatlarini baholashning uch mezonli modeli

Mezon	Asosiy savol	Asosiy dalil
Texnik zarurlik	Xarajat loyiha maqsadi uchun zarurmi?	Texnik topshiriq, loyiha yechimi
Bozorga moslik	Narx bozor sharoitiga mosmi?	Tijorat takliflari, tender, qiyosiy ma'lumot
Shartnomaviy ruxsat etilganlik	Xarajat MTB va tasdiqlangan budjet doirasidami?	MTB, ish dasturi, budjet

Manba: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Birinchi mezon xarajatning texnik zarurligini belgilaydi.

Ikkinchi mezon xarajat narxining bozorga mosligini baholaydi.

Uchinchi mezon esa xarajatning bitim va tasdiqlangan budjet bilan muvofiqligini tekshiradi.

Shu tariqa xarajadni kompensatsiya qilish uchun faqat hisob-faktura yoki to'lov hujjati mavjudligi yetarli emas. Xarajatning iqtisodiy mazmuni, texnik natijasi va shartnomaviy maqomi bir vaqtda baholanishi lozim.


Mazkur modelning afzalligi shundaki, u davlat nazoratini "xarajat bor yoki yo'q" degan oddiy savoldan "xarajat nima uchun amalga

oshirildi, qanday natija berdi, bozorga mosmi va kompensatsiya qilinishiga shartnomaviy asos bormi?" degan kompleks savolga o'tkazadi.

Xarajatlarni nazorat qilishning samaradorligi ular amalga oshirilgandan keyingi audit bilan cheklanmasligi kerak.

Xarajatning iqtisodiy asosi loyihaoldi bosqichida shakllanadi. Aynan shu bosqichda texnik yechim, texnologik arxitektura, moliyaviy model va xaridlar strategiyasi tanlanadi.

Shu sababli MTB loyihalarida xarajatlarni boshqarish zanjirini quyidagicha shakllantirish taklif etiladi (2-rasm).



2-rasm. MTBda xarajatlarni boshqarishning soddalashtirilgan zanjiri

Bunda PQ-332-son qaror [8] va PF-259-son Farmon [1] doirasidagi loyihaoldi ekspertizasi hamda davlat xaridlarini nazorat qilish mexanizmlarini MTBning keyingi xarajatlarni qoplash jarayoni bilan institutsional jihatdan bog'lash mumkin.

"Xaridlar strategiyasi"ning loyiha hujjatlarida aks ettirilishi xarajatlarni keyinchalik kompensatsiya qilish nuqtayi nazaridan ham muhim. Xarid lotlarini shakllantirish, tender usulini tanlash, boshlang'ich narxlarni asoslash va yetkazib beruvchilarni saralash keyingi xarajatlar bazasiga ta'sir qiladi.

Demak, profilaktik nazoratning asosiy vazifasi xarajatlarni keyinchalik rad etish emas, balki asossiz xarajat paydo bo'lishining oldini olishdan iborat.

Neft-gaz loyihalarida "gold plating" deganda loyiha uchun zarur bo'lgan texnik talablardan ortiqcha, qimmat yoki iqtisodiy jihatdan yetarli darajada asoslanmagan texnik yechimlarni qo'llash xavfi tushuniladi.

Bunday xavf quduqlarni loyihalash, burg'ilash, texnologik uskunalari, muhandislik xizmatlari, transport, IT tizimlari va boshqa xarajatlarda yuzaga kelishi mumkin.

Masalan:

- loyiha ehtiyojidan ortiq uzoq xizmat muddatiga ega qimmat uskunani tanlash;
- mahalliy yoki mintaqaviy standartlar yetarli bo'lgan holda qo'shimcha sertifikat talab qilish;
- ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lmagan qo'shimcha funksiyalarga ega "lyuks" modifikatsiyalarni xarid qilish;
- bog'liq kompaniyalar tomonidan bozordan yuqori narxlarda xizmatlar ko'rsatilishi.

Biroq qimmat texnik yechimni avtomatik ravishda asossiz xarajat deb baholash ham to'g'ri emas. Agar qimmatroq texnologiya xavfsizlikni oshirsa, ishlab chiqarish hajmini ko'paytirsa, ekologik xavfni kamaytirsa yoki keyingi ekspluatatsiya xarajatlarini pasaytirsa,

uning yuqori boshlang'ich qiymati iqtisodiy jihatdan asoslangan bo'lishi mumkin.

Shu sababli “eng arzon variant” tamoyili o'rniga “zarur texnik natijaga erishishning

hayotiy sikl qiymati bo'yicha eng asoslangan varianti” tamoyilini qo'llash maqsadga muvofiq.

2-jadval

“Gold plating” xavfini baholash algoritmi

Bosqich	Nazorat savoli
1	Texnik yechim loyiha maqsadi uchun zarurmi?
2	Muqobil variantlar mavjudmi?
3	Qimmat variantning texnik ustunligi nimada?
4	Hayotiy sikl qiymati qanday?
5	Xavfsizlik va ekologik samara qanday?
6	Xarid narxi bozorga mosmi?
7	Xarajat MTB budjetiga muvofiqmi?

Manba: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur algoritm davlatning xarajatlarni nazorat qilish manfaatlarini investorning texnologik tanlov erkinligi bilan muvofiqlashtirish imkonini beradi.

MTB doirasida investor korporativ guruh tarkibiga kiruvchi kompaniyalardan muhandislik, konsalting, texnik xizmat, uskuna, ijara va boshqa xizmatlarni xarid qilishi mumkin.

Bunday operatsiyalarda operatsiyaning hujjatlar bilan rasmiylashtirilgani uning avtomatik ravishda iqtisodiy asoslanganligini anglatmaydi.

OECDning transfert narxlarini belgilash bo'yicha qo'llanmasida bog'liq korxonalar o'rtasidagi operatsiyalarni mustaqil tomonlar o'rtasidagi shartlar bilan solishtirishga asoslangan arm's length principle – “mustaqil tomonlar tamoyili” muhim tamoyil sifatida qaraladi [4].

MTBda mazkur yondashuvni xarajatlarni nazorat qilish bilan integratsiyalashtirish maqsadga muvofiq.

Taklif etilayotgan nazorat zanjiri (3-rasm).



3-rasm. MTBda operatsiyalarni nazorat qilish va kompensatsiyani asoslash modeli

Bunda quyidagi ma'lumotlar saqlanishi lozim:

- kontragentning bog'liq tomon maqomi;
- operatsiyaning iqtisodiy mazmuni;
- bajarilgan ishning texnik natijasi;

- narxni shakllantirish usuli;
- qiyoslanadigan operatsiyalar;
- xizmatning MTB uchun zarurligi;
- xarajatning tasdiqlangan budjetdagi o'rni.

Shu bilan birga, transfert narxlarini belgilash va MTB xarajatlarini nazorat qilishni alohida jarayonlar emas, balki yagona fiskal nazorat tizimining o'zaro bog'liq elementlari sifatida tashkil etish maqsadga muvofiq.

O'zbekistonda bir qator chet el investorlari MTBlar asosida neft-gaz loyihalarini amalga oshirmoqda. Amaldagi soliq qonunchiligi bilan bir qatorda, bitimlar imzolangan davrda amal qilgan soliq normalari ham ularning fiskal rejimida muhim ahamiyatga ega.

MTB shartlarining barqarorligi prinsipiga ko'ra, investor uchun shartnoma imzolangan

vaqtda mavjud bo'lgan fiskal muhitning o'zgarishi loyihaning iqtisodiy natijasiga ta'sir qilmasligi yoki bunday ta'sir shartnoma mexanizmlari orqali tartibga solinishi lozim.

"O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning 6-moddasida Soliq kodeksining 69-bobi qoidalarini 2020-yil 1-yanvardan keyin tuziladigan MTBlarga nisbatan qo'llanilishi belgilangan bo'lsa-da, yangi tahrirdagi Soliq kodeksining boshqa qoidalarini MTBlarda belgilangan soliq rejimiga ham ta'sir ko'rsatdi [9].

3-jadval

2020-yildan keyingi ayrim soliq o'zgarishlarining MTBlarga ta'siri


N ^o	O'zgarish	MTB loyihalariga ta'sir
1	O'zbekiston Respublikasi rezidentlari bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan investorlarga beriladigan tovar (ish, xizmat)larga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini nol (o) stavkada qo'llash mexanizmi o'zgardi	Ushbu soliqni avval budjetga to'liq to'lab, keyin belgilangan tartibda qaytarish mexanizmi joriy qilindi
2	Norezident yuridik shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmat, bajarilgan ishlar uchun qo'shilgan qiymat solig'i to'lanishi ko'zda tutildi	MTBlar doirasida asosiy pudratchilar norezident yuridik shaxslar bo'lganligi sababli qo'shimcha xarajatlar yuzaga keldi
3	O'zbekiston Respublikasi hududida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qiluvchi chet ellik yuridik shaxslarga qo'shilgan qiymat solig'i to'lash tartibi joriy qilindi	MTBlar doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotni hamkorlikda sotishga ixtisoslashgan marketing kompaniyasi qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchisiga aylandi
4	Bitim doirasida chetdan olib kelinayotgan tovarlar uchun bojxona to'lovlari bo'yicha belgilangan imtiyozlar nazarda tutilmadi	Ushbu imtiyoz 2020-yil 1-yanvariga qadar amalda bo'lgan Soliq kodeksining 256-moddasida nazarda tutilgan edi

Manba: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Mazkur o'zgarishlarning iqtisodiy ta'siri shundan iboratki, agar qo'shimcha soliq va bojxona xarajatlari MTB shartlariga muvofiq kompensatsiya qilinadigan xarajatlar tarkibiga

kiritilsa, ular kompensatsiya mahsulotini oshiradi.

Bu esa, o'z navbatida, quyidagi zanjir orqali fiskal natijaga ta'sir ko'rsatadi (4-rasm).



4-rasm. Soliq va bojxona xarajatlaridagi o'zgarishlarning MTB loyihalarini fiskal natijasiga ta'siri

Shuning uchun MTBlarda soliq qonunchiligidagi o'zgarishlarni faqat soliq to'lovi nuqtayi nazaridan emas, balki ularning butun loyiha iqtisodiyotiga ta'siri nuqtayi nazaridan baholash zarur.

Mazkur masalalar yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan bitim ishtirokchilariga 2020-yil 1-yanvariga qadar amal qilgan soliq solish tartibining muayyan muddat davomida saqlanishiga oid tushuntirishlar berilgan [10].


2027-yildan keyin QQS qo'llanilishi bilan bog'liq noaniqliklar investorlar va potensial pudratchilarning uzoq muddatli shartnomalar tuzish bo'yicha qarorlariga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli MTBlar bo'yicha soliq

rejimining oldindan prognoz qilinishi investitsiya qarorlarining muhim sharti sifatida qaralishi lozim.

Zamonaviy neft-gaz loyihalarida xarajatlar hajmi katta va operatsiyalar zanjiri murakkab bo'lgani sababli an'anaviy audit usullarining o'zi yetarli bo'lmasligi mumkin.

PF-259-son Farmon davlat xaridlarida raqamli monitoringni kuchaytirish, risklarni avtomatik aniqlash va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga qaratilgan mexanizmlarni ham nazarda tutadi [1].

Mazkur yondashuvni MTB xarajatlarini nazorat qilishda quyidagi model asosida rivojlantirish mumkin (5-rasm).



5-rasm. MTB xarajatlarini raqamli nazorat qilish modeli

Bunday tizim xarajatlarni post-auditdan oldingi profilaktik nazoratga o'tkazish imkonini beradi.

Sun'iy intellektdan foydalanishda esa muhim prinsip shundan iboratki, algoritm yakuniy huquqiy qaror qabul qilmasligi, balki yuqori riskli operatsiyalarni inson ekspertizasi uchun saralashi lozim.

MTB xarajatlarining fiskal natijaga ta'sirini ko'rsatish maqsadida shartli model ishlab chiqildi. U muayyan bitimning real moliyaviy ko'rsatkichlarini emas, xarajatlar bazasi o'zgarishining nazariy ta'sirini ifodalaydi.

4-jadval

MTB xarajatlarini optimallashtirishning shartli fiskal ta'siri

Ko'rsatkich	Bazaviy ssenariy	Optimallashtirish ssenariy	Farq
Yalpi mahsulot qiymati	100	100	0
Shartli royalti	30	30	0
Kompensatsiya mahsuloti	40	25	-15
Foydaga qolgan mahsulot	30	45	+15
Davlatning foyda mahsulotidagi ulushi (50%)	15	22,5	+7,5
Shartli foyda solig'i (10%)	1,5	2,25	+0,75
Jami shartli davlat daromadi	46,5	54,75	+8,25

Manba: Mavzuga doir ilmiy adabiyotlar hamda rasmiy internet manbalari asosida muallif ishlanmasi.

Bazaviy ssenariyda shartli davlat daromadi:

$30 + 15 + 1,5 = 46,5$ shartli birlikni tashkil qiladi.

Optimallashtirish ssenariyda:

$30 + 22,5 + 2,25 = 54,75$ shartli birlikni tashkil qiladi.

Farq:

$54,75 - 46,5 = 8,25$ shartli birlik.

Nisbiy o'sish:

$8,25 / 46,5 \times 100 = 17,74\%$.

Shunday qilib, mazkur shartli modelda kompensatsiya qilinadigan xarajatlarning 40 birlikdan 25 birlikka pasayishi davlatning shartli daromadini 17,74 foizga oshirishi mumkin.

Biroq bu natija xarajatlarni mexanik tarzda qisqartirish zarurligini anglatmaydi. Agar xarajatlarni kamaytirish texnik xavfsizlik, ishlab chiqarish hajmi yoki ekologik standartlarning pasayishiga olib kelsa, bunday optimallashtirish iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lishi mumkin.

Shu sababli optimallashtirishning asosiy mezonlari:

“eng kam xarajat” emas, balki “zarur texnik natijaga erishish uchun iqtisodiy jihatdan asoslangan xarajat” bo'lishi lozim.

Mazkur maqolada amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida quyidagi ilmiy natijalarga erishildi:

Birinchidan, MTBlarda yo'l qo'yiladigan xarajatlarni texnik zarurlik, bozorga moslik va

shartnomaviy ruxsat etilganlikdan iborat uch mezonli model asosida baholash taklif etildi.

Ikkinchidan, MTB xarajatlarini nazorat qilishning loyihaoldi profilaktik modeli ishlab chiqildi.

Uchinchidan, “gold plating” xavfini baholashda boshlang'ich narx bilan birga texnik natija, hayotiy sikl qiymati, xavfsizlik va ekologik samarani hisobga olish zarurligi asoslandi.

To'rtinchidan, bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar uchun “operatsiya → texnik natija → bozor narxi → shartnomaviy ruxsat etilganlik → kompensatsiya”dan iborat integratsiyalashgan nazorat zanjiri taklif etildi.

Beshinchidan, MTB xarajatlarini raqamli reestr, risk indeksi va inson ekspertizasiga yo'naltirish mexanizmiga asoslangan raqamli monitoring modeli ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari asosida:

MTB xarajatlarini uch mezonli model asosida baholash;

loyihaoldi ekspertizasi natijalarini keyingi budjet va xarajatlarni qoplash jarayoni bilan bog'lash;

“gold plating” xavfini hayotiy sikl qiymati asosida baholash;

bog'liq tomonlar bilan operatsiyalarda arm's length prinsipidan va qiyoslanadigan bozor ma'lumotlaridan foydalanish;

MTBlar uchun 2020-yil 1-yanvarga qadar amal qilgan qo'shilgan qiymat solig'i rejimining amaldagi MTBlarni to'liq amalga oshirish

yakuniga qadar yoki 2027-yil 1-yanvardan 2029-yil 31-dekabrgacha qo'llanilishini nazarda tutuvchi qonunchilik o'zgarishlarini amalga oshirish;

MTB xarajatlarining yagona raqamli reestrini joriy etish;

yuqori riskli operatsiyalarni avtomatik saralash;

soliq o'zgarishlarining kompensatsiya qilinadigan xarajatlarni bazasiga ta'sirini oldindan baholash;

xarajatlarni loyihalashdan kompensatsiyagacha bo'lgan yagona elektron audit izi orqali kuzatish taklif etiladi.

Xulosa va takliflar.

MTB asosidagi neft-gaz loyihalarida davlat va investor manfaatlarining muvozanati xarajatlarni qoplash mexanizmi bilan bevosita bog'liq. Investorning asoslangan xarajatlarini qoplash investitsiyaviy rag'batni ta'minlasa, xarajatlarni bazasining asossiz kengayishi davlatning resurs rentasidagi ulushini kamaytirishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-259-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2025.
2. Johnston D. *International Petroleum Fiscal Systems and Production Sharing Contracts*. – Tulsa, OK : PennWell Books, 1994. – IX, 325 p. – ISBN 0-87814-426-9.
3. United Nations. *United Nations Handbook on Selected Issues for Taxation of the Extractive Industries by Developing Countries*. – New York : United Nations, 2018. – XV, 473 p. – ISBN 978-92-1-159123-1.
4. OECD. *OECD Transfer Pricing Guidelines for Multinational Enterprises and Tax Administrations 2022*. – Paris : OECD Publishing, 2022. – 659 p. – DOI: 10.1787/oe655865-en.
5. Nakhle C. *Petroleum Fiscal Regimes: Evolution and Challenges* // *The Taxation of Petroleum and Minerals: Principles, Problems and Practice* / ed. by P. Daniel, M. Keen, C. McPherson. – Abingdon; New York : Routledge, 2010. – P. 89–121.
6. Johnson C. J. *Establishing an Effective Production Sharing Type Regime for Petroleum* // *Resources Policy*. – 1981. – Vol. 7, No. 2. – P. 129–141. – DOI: 10.1016/0301-4207(81)90036-2.
7. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 7-dekabrdagi 312-II-son "Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2002. – 1-son. – 12-modda.

Shu sababli MTB xarajatlarini baholashda texnik zarurlik, bozorga moslik va shartnomaviy ruxsat etilganlikni birlashtiruvchi uch mezonli model taklif etildi.

Tadqiqot xarajatlarni nazorat qilishni post-auditdan profilaktik va riskka asoslangan nazoratga o'tkazish zarurligini ko'rsatdi. Bunda loyihaoldi ekspertizasi, texnik yechimlar, moliyaviy model va xaridlar strategiyasi keyingi xarajatlarni qoplash jarayoni bilan uzviy bog'lanishi lozim.

Shuningdek, "gold plating" va bog'liq tomonlar bilan operatsiyalar kabi yuqori riskli yo'nalishlarda xarajatning hujjatlarda aks ettirilganligi emas, uning iqtisodiy mazmuni va bozorga muvofiqligi asosiy mezon bo'lishi kerak.

MTBlar uchun 2020-yil 1-yanvargacha amal qilgan QQS rejimini amaldagi MTBlarni to'liq amalga oshirish yakuniga qadar yoki 2027–2029-yillarda qo'llash investorlar uchun soliq barqarorligini ta'minlab, investitsiya loyihalarining iqtisodiy samaradorligi va uzoq muddatli investitsiyaviy ishonchni oshirishga xizmat qilishi mumkin.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi "Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo'yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-332-son Qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2022.

9. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi O'RQ-599-son Qonuni bilan yangi tahrirda tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – 2019.

10. Бойкабилов Б. НДС при реализации товаров участникам СРП // Налоговые и таможенные вести. – 2021. – 4 мая. – № 18 (1394).